



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

8 ЖИЛД, 3 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 8, НОМЕР 3

LOOK TO THE PAST

VOLUME 8, ISSUE 3



ТОШКЕНТ-2025

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори,
профессор, академик,
Ўзбекистон Миллий университети

Бобожонова Дилором Бобожонова
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари
университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Аширов Адхам Азимбаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзР ФА Тарих институти

Агзамова Гулчехра Азизовна
тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзР ФА Тарих институти

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори,
Телави давлат университети

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори, доцент,
Хотин-қизлар давлат педагогика
университети

Аминова Азиза Марковна
тарих фанлари доктори, доцент,
Навоий давлат педагогика институти

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори,
Тошкент ирригация ва кишлок
хужалигини механизациялаш
муҳандислари институти
Миллий тадқиқот университети

Худайқулов Тулқин Дўстбоевич
Тарих фанлари доктори (DSc)
Шаҳрисабз дала педагогика институти

Гофоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори, профессор,
Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори, профессор,
Қариш муҳандислик-иқтисодиёт
институти

Халикова Раҳбар Эргашевна
тарих фанлари доктори, профессор,
Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Эшов Боходир Жўраевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Қариш давлат университети

Маҳкамova Надира Раҳмановна
тарих фанлари доктори, профессор,
Тошкент ахборот технологиялари
университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори,
Телави давлат университети

Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна
тарих фанлари доктори, доцент,
Нукус давлат педагогика институти

Мустафасва Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари доктори
Ўзбекистон Фанлар академияси

Ерметов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович
тарих фанлари доктори, профессор,
Андижон давлат университети

Расулов Абдуллажон Нуриддинович
тарих фанлари доктори, профессор,
Наманган давлат университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Санкт-Петербург Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори, профессор,
Қозоғистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори, профессор,
Қозоғистон Миллий университети

Хайдаров Муродилла Махмуталиевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Тожибоев Музаффар Турдибоевич
тарих фанлари доктори, профессор,
ИИВ Академияси

Алиева Лале
тарих фанлари доктори,
Озарбайжон давлат университети

Саипова Камола Давляталиевна
тарих фанлари доктори, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори,
Догистон мустақил университети

Иноятова Диларам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент,
Азербайджон давлат
иқтисодиёт университети

Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Гулистон
давлат педагогика институти

Нуруллаева Шоира Кушназаровна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Урганч давлат университети

Толибоева Нодира Одилжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон
жаҳон тиллари университети
Масъул котиб

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор,
Телави давлат университети

Джоробекова Айнур Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Қозогистон дипломатия академияси

Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исаков Бахадир Нигматуллаевич
тарих фанлари номзоди,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Холмуродов Дилшод Рашидович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Жиззах давлат
педагогика университети

Одилов Аброр Анварович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети
Масъул котиб

Тўхтабасв Аъзамжон Шарипхўжаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Алимардонов Отабек Қудратович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Ўзбекистон Миллий университети

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT


1. Лазизахон Алиджанова БЕРУНИЙНИНГ ҚИЁСИЙ ДИНШУНОСЛИККА ОИД ИЛМИЙ ЁНДАШУВИ.....	5
2. Шоҳрух Гулбаев ИЛК ЎРТА АСРЛАРДА ТЎХОРИСТОН.....	9
3. G‘ulom Djumamurotov XVIII ASR VA XIX ASR BOSHLARIDA QORAQALPOQLARNING O‘RTA OSIYO XONLIKLARI VA ROSSIYA BILAN SIYOSIY VA IQTISODIY ALOQALARI.....	13
4. Bahodir Isakov O‘ZBEKISTONDA TURIZM MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHDA TARIXIY MEROSNING O‘RNI.....	20
5. Parvina Ismoilova TURKISTONGA RUS BANKLARINING KIRIB KELISHI (XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARI).....	24
6. Икрамжон Исмаилов ЎЗБЕКИСТОНДА ХАЛҚАРО АНДОЗАЛАРГА МОС КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШ БОРАСИДАГИ ЎЗГАРИШЛАР (1991-2020 йй.).....	29
7. Парвиз Магеррамов ВЗАИМООТНОШЕНИЯ АЗЕРБАЙДЖАНА СО СТРАНАМИ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ В ОБЛАСТИ ТРАНСПОРТА.....	37
8. Sayyora Turayeva XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA TURKISTON MINTAQASIDA XORIJIY JAMIYATLARINING KONCHILIK SOHASIGA KIRIB KELISHI TARIXIDAN.....	44
9. Дмитрий Епифанов ЭФФЕКТИВНЫЕ СПОСОБЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА ПРЕПОДАВАТЕЛЕМ ПО ИСТОРИИ УЗБЕКИСТАНА НА ПРИМЕРЕ CHATGPT.....	55
10. Зебунисо Саидова ЎЗБЕКИСТОНДА АҲОЛИ ЁШ-ЖИНСИЙ ТАРКИБИ ДИНАМИКАСИНИНГ ШАКЛЛАНИШИ ВА ДЕМОГРАФИК ЖАРАЁНЛАР (XIX АСР ОХИРИ – XX АСР).....	65
11. Nishona Hasanova MARKAZIY OSIYODA BOG‘-XIYOBON SAN’ATI VA CHORVACHILIKNING RIVOJLANISH TARIXI.....	74
12. Ўткиржон Хошимов ҚАЙТА ҚУРИШ ЙИЛЛАРИДА ЎЗБЕКИСТОН ОЛИЙ ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА ИЛМ-ФАН СОҲАЛАРИДАГИ ЎЗГАРИШЛАР.....	79



G'ulom Masharipovich Djumamurotov,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti,
O'zbekiston tarixi kafedrasi o'qituvchisi

XVIII ASR VA XIX ASR BOSHLARIDA QORAQALPOQLARNING O'RTA OSIYO XONLIKLARI VA ROSSIYA BILAN SIYOSIY VA IQTISODIY ALOQALARI

For citation: Gulam M. Djumamurotov. POLITICAL AND ECONOMIC RELATIONS OF THE KARAKALPAKS WITH THE CENTRAL ASIAN KHANATES AND RUSSIA IN THE 18TH AND EARLY 19TH CENTURIES. Look to the past. 2025, vol. 8, issue 3, pp.13-19

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.15132814>

ANNOTATSIYA

Maqolada tarixan qoraqalpoqlar Ural, so'ngra Volga bo'ylarida, Orol atrofi hamda Sirdaryoning quyi havzalari etaklarida yashab kelishgani, ularning ko'chib yashashlariga ko'proq tashqi omillar sabab bo'lganligi o'rganilgan. Nihoyat ular XIX asr boshlarida quyi Amudaryo havzasi, Orolning janub va janubi g'arb tomonlarida muqim hayot tarziga o'ta boshlashdi. Qoraqalpoqlar goh qozoqlar, goh turkmanlar hujumlariga uchrab, buning oqibatida Xiva xonligi fuqaroligiga o'tishdi. Quyi Amudaryoning katta cho'l va suv chiqmagan cho'lga tutash sho'rxok yerlarini ular o'zlarining mashaqqatli mehnati evaziga o'zlashtirishdi. O'troq hayotga o'ta boshlagach, dehqonchilik bilan shug'ullanish qoraqalpoqlar hayotida asosiy o'rinni egallay boshladi. Shunday bo'lsa-da, chorvachilik ham qoraqalpoqlar hayotida yetakchi sohalardan biri bo'lib qolaverdi. XIX asr o'rtalarida qoraqalpoqlar Xiva xonligi hukmronligi ostida bo'lib, ular Amudaryoning har ikkala qirg'og'ida va Orol dengiziga quyiladigan yerlarda yashagan. Ularning soni o'sha vaqtda taxminan 100 ming nafardan oshmagan. Qoraqalpolarga berilgan yerlar xonlik mulki sanalgan, ular bu yerlar uchun soliqlar to'lashgan, shuningdek turli majburiyatlarni ham bajarishgan.

Shuningdek, maqolada XVIII asr va XIX asr boshlarida qoraqalpoqlarning O'rta Osiyo xonliklari va Rossiya bilan siyosiy va iqtisodiy aloqalarining ahamiyati va mohiyati ilmiy tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: qoraqalpoqlar, O'rta Osiyo xonliklari, Rossiya, XVIII asr, XIX asr, Amudaryo havzasi, Orol, qozoqlar, turkmanlar, Xiva xonligi, Quyi Amudaryo, cho'l, sho'rxok yerlar, o'troq hayot, dehqonchilik, chorvachilik, soliqlar, siyosiy va iqtisodiy aloqalar.

Гулам Машарипович Джумамуротов,
Преподаватель кафедры истории Узбекистана,
Узбекский государственный университет мировых языков

ПОЛИТИЧЕСКИЕ И ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ОТНОШЕНИЯ КАРАКАЛПАКОВ С
ХАНСТВАМИ СРЕДНЕЙ АЗИИ И РОССИЕЙ В XVIII И НАЧАЛЕ XIX ВЕКА

АННОТАЦИЯ

В статье исследуется, что исторически каракалпаки проживали вдоль Урала, затем на Волге, вокруг Аральского моря и в предгорьях нижнего течения реки Сырдарьи, и что их миграция во многом была обусловлена внешними факторами. Наконец, в начале XIX века они начали расселяться в нижнем течении Амударьи, на юге и юго-западе Аральского моря. Каракалпаки подверглись нападению казахов и туркмен, в результате чего стали подданными Хивинского ханства. Благодаря своему упорному труду они покорили обширные пустыни и солончаки нижнего течения реки Амударья. Когда каракалпаки начали оседать, земледелие стало важной частью их жизни. Тем не менее, скотоводство оставалось одной из ведущих отраслей жизни каракалпаков. В середине XIX века каракалпаки находились под властью Хивинского ханства, проживая по обоим берегам Амударьи и в районах ее впадения в Аральское море. Их численность в то время не превышала примерно 100 000 человек. Земли, предоставленные каракалпакам, считались собственностью ханства, и они платили за эти земли налоги, а также выполняли различные обязательства.

В статье также научно анализируются значение и суть политических и экономических связей каракалпаков со среднеазиатскими ханствами и Россией в XVIII – начале XIX вв.

Ключевые слова: каракалпаки, среднеазиатские ханства, Россия, XVIII в., XIX в., бассейн Амударьи, Арал, казахи, туркмены, Хивинское ханство, низовья Амударьи, пустыня, солончаки, оседлость, земледелие, скотоводство, налоги, политические и экономические отношения.

Gulam M. Djumamurotov,

Teacher of the Department of History of Uzbekistan,
Uzbekistan State World Languages University

**POLITICAL AND ECONOMIC RELATIONS OF THE KARAKALPAKS WITH THE
CENTRAL ASIAN KHANATES AND RUSSIA IN THE 18TH AND EARLY 19TH
CENTURIES**

ABSTRACT

The article explores that historically the Karakalpaks lived along the Urals, then on the Volga, around the Aral Sea and in the foothills of the lower reaches of the Syr Darya River, and that their migration was largely determined by external factors. Finally, in the early 19th century, they began to settle in the lower reaches of the Amu Darya, in the south and southwest of the Aral Sea. The Karakalpaks were attacked by the Kazakhs and Turkmens, as a result of which they became subjects of the Khiva Khanate. Through their hard work, they conquered the vast deserts and salt marshes of the lower reaches of the Amu Darya River. When the Karakalpaks began to settle, agriculture became an important part of their lives. However, cattle breeding remained one of the leading industries of the Karakalpaks' life. In the mid-19th century, the Karakalpaks were under the rule of the Khiva Khanate, living on both banks of the Amu Darya and in the areas where it flows into the Aral Sea. Their number at that time did not exceed approximately 100.000 people. The lands granted to the Karakalpaks were considered the property of the khanate, and they paid taxes for these lands and fulfilled various obligations.

The article also scientifically analyzes the significance and essence of the political and economic ties of the Karakalpaks with the Central Asian khanates and Russia in the 18th – early 19th centuries.

Index Terms: Karakalpaks, Central Asian khanates, Russia, 18th century, 19th century, Amu Darya basin, Aral, Kazakhs, Turkmens, Khiva Khanate, Lower Amu Darya, desert, salt marshes, settled way of life, agriculture, cattle breeding, taxes, political and economic relations.

1. Dolzarbligi:

Ma'lumki, mustaqillik tufayli xalqimizning azim tarixini chuqur o'rganish, qayta tiklash uchun juda keng va katta imkoniyatlar, shart-sharoitlar yuzaga keldi.

Xususan, XVIII-XIX asr boshlarida qoraqalpoqlarning O'rta Osiyo xonliklari va Rossiya bilan siyosiy va iqtisodiy aloqalarini o'rganish va ilmiy tadqiq etish dolzarb masalalar qatoriga kiradi.

Qoraqalpoqlar ham Markaziy Osiyoning boshqa xalqlari kabi qadimiy xalq bo'lib, ko'p asrlik tarixga egadir. Xorazm vohasidan, Amudaryoning va Sirdaryoning o'rta quyi oqimidan, Ustyurt va Orol bo'yidan keyingi 40 yil ichida topilgan arxeologik ashyolar, qo'rg'onlar, masjidular, masjidu madrasalar, suv inshootlarining qoldiqlari va, nihoyat, ota-bobolarimizning aqlu zakovati bilan yaratilgan ming yildan ortiq tariximizni o'z ichiga olgan qo'lyozma kitoblar bunga dalil-isbotdir. Ularning har birida tarixiy voqealar, urf-odatlar, ajdodlarimiz hayotida sodir bo'lgan qahramonlik namunalari, kurashlar nafasi saqlanib qolgan. Demak, har birimiz ajdodlarimiz hayotiga nimaiki tegishli bo'lsa, barchasini bilishimiz, anglashimiz va chuqur o'rganishimiz kerak. Shu nuqtai nazardan, "XVIII asr va XIX asr boshlarida qoraqalpoqlarning O'rta Osiyo xonliklari va Rossiya bilan siyosiy va iqtisodiy aloqalari" o'z mohiyatiga ko'ra dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Mavzuning asosiy maqsadi qadimiy o'lkamiz, ko'hna va boy tariximizni to'laroq o'rganish, uning o'qilmay qolgan sahifalarini hozirgi davr talablari asosida o'rganishdan iborat.

2. Metodlar va mavzuning o'rganilganlik darajasi:

Maqolada tadqiqot oldiga qo'yilgan vazifalarni hal etishda va ularga yechim topishda, eng avvalo, tarixiylik va xronologik metodlar asos qilib olindi. Shuningdek, xolislik va ilmiylik tamoyillari asosida XVIII asr va XIX asr boshlarida qoraqalpoqlarning O'rta Osiyo xonliklari va Rossiya bilan siyosiy va iqtisodiy aloqalari ilmiy nuqtai nazardan tadqiq etildi.

Ushbu maqolani yozishda B.Axmedov[1], akademik S.Kamalov[2]ning asar va maqolalaridan foydalanildi. B.Axmedovning "Tarixdan saboqlar" qo'llanmasining "Qadimgi qo'lyozmalarni varaqlaganda" deb nomlangan ikkinchi qismida umuman tarixni o'rganishda muhim manbalardan biri hisoblangan noyob va hali ham o'rganilmagan qo'lyozma kitoblar, jumladan, "Tarixiy Abulxayrxoniy", "Abulg'ozixon" va uning "Shajarayi turk" kitobi tahlil qilinadi, bu asar biz uchun muhim manba hisoblanadi.

S.K.Kamalov asarida Qoraqalpoqlarning Markaziy Osiyo va Rossiya xalqlari bilan aloqalari yoritilgan. Shu bilan bir qatorda P.A.Ivanov[3], T.A.Jsanka[4], B.V.Andrianov[5], A.Karimov[6] va boshqalarning asar va maqolalaridan foydalaniladi. Bu asarlarda davr ta'siri sezilib turadi. Shuningdek, K.Mametov[7], A.Pirnazarov[8] asarlari va maqolalaridan ham foydalanildi.

3. Tadqiqot natijalari:

Qoraqalpoqlar XVII asr oxiridan XVIII asr o'rtalarigacha Sirdaryoning quyi oqimida yashagan. Ular qozoqlarning Kichik juz xonligi bilan qo'shni yashagan. Lekin, iqtisodiy va siyosiy tomondan mustaqil edi. Qozoqlar dashtning juda katta hududini egallagan bo'lib, chorvachilik bilan shug'ullangan holda ko'chmanchilikda hayot kechirishgan. Qoraqalpoqlar o'zlari egallagan hududda tabiiy boyliklardan foydalanishda yaxshi tajribaga ega bo'lganlar. Qoraqalpoqlarda xo'jalikning kompleks holda rivojlanishiga sharoit yaratilgan. Dehqonchilik va chorvachilik bilan bir qatorda ular baliqchilik bilan ham shug'ullanishgan. Qoraqalpoqlar qadimdan irrigatsiya va sug'orish inshootlarini yaxshi bilishgan. Ular to'g'on qurib Sirdaryoning irmoqlaridan bo'lgan Quvondaryo va Yangidaryo suvlarini o'zlarining ekin maydonlariga yo'naltirishgan. Bu haqida keng ma'lumotlarni 1740-yilda ruslar tomonidan qoraqalpoqlar yaqinida o'sha vaqtda turgan qozoqlarning Kichik juz xoni Abulxayrxon huzuriga elchi qilib yuborilgan D.Gladishevning yozma ma'lumotlaridan olsa bo'ladi. U yozadiki, "yaqin maydonlarini kengaytirishda keng ko'lamda sug'orish ishlari olib borilgan".

Qoraqalpoqlarning dehqonchilik qilgan yerlari Sirdaryoning o'rta va quyi oqimidan Quvondaryoning va Yangidaryogacha bo'lgan yerlarni o'z ichiga olgan. Qoraqalpoqlar Sirdaryo, Adamati va Quvondaryoning ikki tomonida ham yashashgan. Ular dehqonchilikda asosan bug'doy arpa, sholi, va boshqa don ekinlari ekishgan. Birinchidan o'zlari talablari uchun, ortiqchasini esa qozoqlarga sotishgan yoki ular bilan chorva mollariga almashtirishgan. Yerni haydashda xo'kizlardan foydalanishgan, chorvachilik bo'yicha ular asosan qoramol boqishgan. Undan tashqari qo'y, echki, tuya va otlari ham bo'lgan. Otlari juda kam bo'lgan. Yirik qoramollarga yoz vaqtida yemxashak berish kerak bo'lmagan. Undan tashqari tuya va qo'ylarga ham faqat qishgagina yem-

xashak g‘amlab qo‘yilgan. Dehqonchilik qilib yetishtirilgan xashak qishda chorvalarni boqish uchun g‘amlab qo‘yilgan. Shuning uchun ham qoraqalpoqlarda dehqonchilik bilan chorvachilik bir biri bilan bog‘liq bo‘lgan. Baliqchilik bilan asosan Sirdaryo bo‘yida va orollarida yashovchilar shug‘illanishgan. Ular o‘zlari tutgan baliqlarini dehqonchilik bilan shug‘ullanuvchilarga bug‘doyga almashtirishgan[9].

Qoraqalpoqlar yarim ko‘chmanchi hayot kechirishgan. Ularning qishlash uchun, ya‘ni qishni o‘tkazish uchun mo‘ljallangan qo‘rg‘onlari bo‘lgan. Qo‘rg‘on atrofi devor bilan o‘ralgan. Erta bahorda yozni o‘tkazish uchun mo‘ljallangan joylarga ko‘chirishgan. Albatta yozni o‘z dalalari yaqinida o‘tkazishgan. Kuzda esa hosilni yig‘ib olib, qishki kurgonlarga qaytishgan. Ba‘zi ma‘lumotlarga qaraganda XVIII asrning 30-yillarida qoraqalpoqlarda hunarmandchilik ham rivojlangan. Ular qo‘rg‘oshin eritib o‘qlar yasashgan. Ularning hayotida bundan tashqari ovchilik ham katta rol o‘ynagan. Ular bo‘ri, tulki, bo‘rsiq, quyon va boshqa hayvon va parandalarni ovlashgan. Hatto bazida yirik hayvon yo‘lbars, yovvoyi to‘ng‘izlarni ham ovlashganlar. Albatta ularning terisidan o‘z ehtiyojlari uchun foydalanishgan. Qoraqalpoqlar hayotida savdo sohasi ham rivojlangan bo‘lgan. Qozoqlar bilan ular o‘rtasida savdo natural holatda olib borilgan. Qozoqlar ularning chorva mollarini qoraqalpoqlarga bug‘doyga almashtirganlar. Undan tashqari qoraqalpoqlar savdoda buxoroliklar bilan qozoq dashtlari o‘rtasi vositachilik qilishgan. Shu bilan ular Orol o‘zbeklari, Buxoro va Xivalik savdogarlar bilan juda ahamiyarli savdo ishlarini olib borishgan. Qoraqalpoq savdogarlari rus shaharlarida Ufa, Qozon, Orenburgda ham bo‘lishgan.

1822-yilda qoraqalpoqlardan Rossiyaga mingta tuyadan iborat karvon borgan[10]. XVIII asrda ham qoraqalpoqlarda urug‘ qabilalarga bo‘linish mustahkam saqlanib qolgan edi. Butun aholi ikki bo‘limga bo‘lingan bo‘lib, ular aris o‘n to‘rt urug‘i va qo‘ng‘irot urug‘lari edi. Aris o‘n to‘rt urug‘i yana mayda urug‘larga bo‘lingan bo‘lib, bular xitoy, qipchoq, keneges va mangit urug‘lari edi. Qo‘ng‘irot urug‘i bo‘lsa yirik shulluk va jaungir urug‘laridan birlashgan edi. Bu urug‘larni albatta urug‘ boshliqlari biylar va lashkarboshilar boshqarishgan. Musulmon ruhoniylari shayx xojilar ham zadogonlardan bo‘lgan. XVIII asrdagi rus ma‘lumotlarida qoraqalpoqlarning yuqori tabaqa zadogonlarining ro‘yxatida xoji va shayxlar ham ko‘rsatilgan edi. Shu asrning 40-yillarida Murod shayx qoraqalpoqlar orasida katta obro‘ qozongan. Uning o‘g‘li Xilbet shayx 1743-yilda rus imperatori Yelizaveta Petrovna huzurida bo‘lgan qoraqalpoq elchilari safida bo‘lgan[11].

Qoraqalpoqlar oldiniga qozoq xonlaridan mustaqil bo‘lishgan. Yozma ma‘lumotlarga qaraganda ularga chingiz urug‘idan bo‘lgan qozoq sultonlari hukmronlik qilishgan. Qozoqlarga xon Tauke hukmronlik qilgan davrda qoraqalpoqlarda 1680-1718 yillarda uning o‘g‘illaridan biri xon bo‘lgan. 1722-yilda qoraqalpoqlarda Eshim Muhammad xon bo‘ladi[12]. U hukmronlik qilgan davrlarda Chor Rossiyasi bilan siyosiy aloqalar o‘rnatilgan. Keyinroq qoraqalpoqlar qozoqlarning Kichik juz xoni Abulxayrxon hukmronligi ostida qoladi. U qoraqalpoqlar ustidan ularning hukmron sinf vakillari, ya‘ni biy va boy dindorlar yordami bilan o‘z hukmronligi o‘rnatadi. Qoraqalpoqlar qozoqlarga har yili soliq to‘lashlari kerak bo‘lgan. Ular soliqni bug‘doy hamda chorva mollari bilan to‘laganlar. Undan tashqari qoraqalpoqlar qozoqlarga ularning rus davlati chegara tumanlariga hamda qo‘shni xonliklar Buxoro va Qo‘qonga bosqinchilik yurishlari uchun otliq yig‘ib berishlari ham kerak bo‘lgan. Shu bilan birga qoraqalpoqlar o‘z hududidan o‘tib ketayotgan karvonlardan qozoq xoni uchun boj olishlari kerak bo‘lgan. Taukxon ruxsati bilan qoraqalpoqlar joylashgan Ullutog‘ atrofidan Toshkent, Qozon, Moskva, Xitoy va boshqa hududlarga karvon yo‘li o‘tardi.

Bojdan tushgan pullarning bir qismini ularning biylari o‘zlarida qoldirgan, qolganlari esa qozoq xonlari va feodallari foydasiga ketgan. XVIII asrning 1-choragida butun qoraqalpoq xalqini birlashtirish harakati boshlangan. Sirdaryo qoraqalpoqlari, Zarafshon vodiysida yashaydigan hamda Xorazmda yashayotgan qoraqalpoqlar bilan yaqin aloqa o‘rnatiladi. Bu guruhlar hammasi Turkiston qoraqalpoqlari artofida yig‘ila boshlaydilar. O‘sha davrda Sirdaryo qoraqalpoqlarini Turkistonliklar deb atashgan. Qoraqalpoqlar hozir ham ota yurtim Turkiston deyishadi. P.P.Ivanovning fikriga ko‘ra, qoraqalpoqlarning o‘sha birlashgan davri rol o‘ynagan. Ular Sig‘noq eski qal‘asida yashagan. Bu qal‘a ularni ko‘chmanchilar hujumidan himoya qilgan. Keyinchalik esa ularning hayotida Yangikent katta rol o‘ynagan. Bu qal‘a Sirdaryoning pastki oqimi bo‘yida Oq-uzaqlar joylashgan.

O'sha qal'ada yashagan vaqtda 1743 yilda qoraqalpoq urug' boshliqlari rus davlatiga murojot qilgan. XVIII asrning birinchi choragida qoraqalpoqlarda savdo-sotiqning rivojlangani tufayli Buxoro va Xiva bilan aloqa kuchaydi. Undan tashqari boshqirdlar bilan yaqin aloqa o'rnatiladi[13].

Keyinchalik boshqirdlardan o'tib Rossiya bilan savdo aloqalari o'rnatilgan. Boshqird savdogarlari qoraqalpoqlarga kelishgan, qoraqalpoq savdogarlari ham o'z navbatida boshqirdlarga borib savdo-sotiqni rivojlantirishgan. 1721-yilda qoraqalpoqlar bir necha marta Qozonga va Ufaga o'z elchilarini yuborishdi. Qoraqalpoqlarning Rossiya bilan aloqani mustahkamlashga urinishlarining sabablari birinchidan qoraqalpoqlarda o'sha paytga kelib savdo-sotiqning rivojlanishi, iqtisodiy aloqalarning o'rnatishi natijasida Qoraqalpoqlarda Rossiya bilan iqtisodiy va siyosiy aloqalarni mustahkamlash zaruratini tug'dirdi. Ikkinchidan qoraqalpoqlar qo'shni qozoqlar singari jungatlarning hujum qilish havfida hayot kechiradi. Shuning uchun ham Rossiyadek davlatdan himoya izlardi. Bu davrga kelib, Rossiyada ham iqtisodiy va madaniy qoloqlik hukm surardi. O'z navbatida Rus davlati ham qoraqalpoqlar bilan yaqin aloqa o'rnatishdan manfaatdor edi. Chunki, Pyotr I o'sha davrda shvedlarga qarshi urush olib borardi. Bu urushni olib borish uchun albatta katta mablag' kerak edi. Pyotr I Sharqiy Turkistonni o'zlashtirib u yerdan oltin olishni niyat qilgan edi.

Shuning uchun Buxgolts harbiy ekspeditsiyaga Yorkentni olib, Sirdayro oltin qum olsa bo'ladimi shuni tekshirib ko'rish topshiriladi. Bundan tashqari O'rta Osiyoga boradigan karvon yo'llari qoraqalpoqlar hududidan o'tardi. Shuning uchun ham O'rta Osiyoga o'tuvchi rus karvonlarining xavfsizligini qozoq dashtlarida hamda Sirdayro bo'yida ta'minlash kerak edi. 1722-yilda qoraqalpoq xoni Eshmuhammad Pyotr I ga noma yo'lladi. Nomani Jonibek Botir boshchiligidagi elchilar Peterburgga yetkazishadi. Qoraqalpoq elchisi Pyotr I ga qoraqalpoq xoni rus imperatorining har qanday hukmini bajarishga tayor ekanligini aytadi. 1721-yilning dekabrda qoraqalpoqlarga Ufa dvoryani Dmitriy Timofeyevich Vershenin keladi. U qoraqalpoq nomi bilan uning rus davlatiga sodiq xizmat qilishi va rus asirlarini qaytishi haqida kelishib olishi kerak edi. Versheninning Eshmuhammadxon bilan suhbatidan keyin rus asir qaytariladigan bo'ldi. Vershenin bilan birga Rossiyaga qoraqalpoq elchilari ham jo'nashadi. Keyingi aloqalarni mustahkamlash uchun qoraqalpoqlarning ruslar bilan yaqinlashishga bo'lgan urinishlari unchalik natija bermaydi. XVIII asrning birinchi choragi oxirida qoraqalpoqlar jung'orlarning bosqinchilik hujumi natijasida buzildi[14].

Jung'orlar bosqini XVIII asr boshlarida qozoqlar bilan jung'orlar chegarasi Irtish daryosidan Balxash orqali janubi-g'arbga Chu daryosining o'rta oqimigacha edi. Lekin, XVIII asrning ikkinchi o'n yillik oxirida jung'orlar yangi kuchlar bilan o'z harakatini yo'naltirishdi. Bu safar qozoq juzlarining o'rtasidagi tarqoqlik tufayli ularning hujumiga qarshi turisha olmadi. 1723-yilda Qozoq xonliklari jung'orlar qo'shinining bosqinchilik hujumi ostida qoldi. Jung'orlarga qarshilik ko'rsatishga hech qanaqa kuchlari bo'lmagan qozoqlar uch yo'nalish bo'yicha qocha boshlashdi. Kichik juz g'arbga Xivaga hamda shimolga Yoyiq va Embi vodiysiga qocha boshlashdi. O'rta juz O'rta Osiyoning markaziy viloyatlari bo'lgan Samarqand va Buxoro tomonga qocha boshlashgan. Katta juz qozoqlari bo'lsa jung'orlarga qaramlikni tan oladi. Qoraqalpoqlar ham qozoqlar bilan birgalikda Sirdaryo bo'ylab yuqoriga harakat qilishga majbur bo'lishgan. Shunday qilib, jung'orlarning Sirdaryoning o'rta oqimini egallab olishi qoraqalpoqlarning ikkiga bo'linishiga olib keldi. Yuqori qoraqalpoqlar jung'or qaramligiga tushib qolgan. Quyi qoraqalpoqlar esa 1743-yildan 1762-yilgacha qozoqlarning kichik juz xonligi qaramligida bo'ladi[15].

Sirdaryo bo'yidagi o'z yerlarini tashlab kelgan quyi qoraqalpoqlar Sirdaryo bilan Quvondaryo oralig'iga joylashib yangidan dehqonchilik yerlarini o'zlashtirish uchun to'g'onlar va sug'orish inshootlarini ko'rishga to'g'ri kelgan. Qoraqalpoqlar yuz bergan qiyinchiliklardan tez o'tib olish uchun bor kuchlarini sarf qilishgan. Yuqorida turgan hukmron sinflar buyuk davlat Rossiya fuqaroligiga kiribgina faqat bu davlatning ularni himoya qilishiga umid bo'g'lashardi. Qoraqalpoqlar bilan bir qatorda Qozoq xoni Abulxayrxon ham o'z davlatini Rossiya tarkibiga qabul qilinishini iltimos qilib murojaat qiladi. 1724-yil 31-dekabrda Qozon komendantining Moskvadagi davlat tashqi ishlar kollegiyasiga xabar berishicha qoraqalpoqlar rus savdogarlariga Buxoro va Xivaga qoraqalpoqlar hududidan o'tishda ularning xavfsizligini ta'minlashga va'da berishadi.

Qoraqalpoqlar albatta bergan vaʼdalari ustidan chiqishadi. 1723-yildan 1743-yilgacha qoraqalpoqlar bilan rus hukumati oʻrtasida savdo-sotiq aloqalari yoʻlga qoʻyilgan boʻlsa ham Rossiya imperiyasi tomonidan qoraqalpoqlarni himoya qilish chorasi koʻrilmadi. Bu yillar ichida bir birlariga elchilar yuborilib turilgan boʻlsa ham biror bir ahamiyatga ega boʻlgan masala hal qilinmadi[16]. Ularning Peterburgdan qaytayotgan oxirgi elchilari Abulxayrxon tomonidan talanadi. Ularni Rossiya fuqaroligiga qabul qilinganligi haqida berilgan yorliq tortib olinadi. Elchilardan faqat bitta Maman botir tirik qoladi. Keyinchalik Maman botir nomi Maman biy nomi bilan taniladi[17].

Abulxayrxonning qoraqalpoq elchilarini talashining sababi ularning oʻz qaramligidan chiqib ketishini xohlamasdi. Chor hukumati boʻlsa oʻz yorligʻidan qoraqalpoqlarni himoya qilamiz, yordam beramiz deb vaʼda bergan boʻlsa ham oʻz vaʼdalari ustidan chiqmadilar. 1743-yilda Abulxayrxonning qoraqalpoqlarga hujum qilib ularni talab xonavayron qilishidan keyin bu xalqqa nisbatan Rossiyaning qiziqishi qolmadi[18].

4. Xulosalar:

Xulosa qilib aytganda, Qoraqalpoqlar yarim oʻtroq hayot kechirib, sugʻorma dehqonchilikni chorvachilik (ayniqsa, qoramol) va baliq ovlash bilan qoʻshib olib borgan. Qoraqalpoqlarning aksariyat qismi XVI-XVIII asrlar oʻrtalarida Sirdaryoning oʻrta va quyi oqimi boʻylari (Turkiston, Jankent, Chirikrabot) hamda bir qismi Orol mintaqasida (Qoʻngʻirot, Shohtemir shahri) yashashgan. Biroq Yoyiq va Emba daryolari boʻylarida ham qoraqalpoqlar istiqomat qilganliklari haqida maʼlumotlar bor. 1743-yil qozoq xoni Abulxayrxon qoraqalpoqlarga hujum qilgan, natijada sirdaryolik qoraqalpoqlarning asosiy qismi XVII asrning ikkinchi yarmida Sirdaryodan uning gʻarbiy irmogʻi – Janadaryoga koʻchgan. XVIII asr oxirida Xiva xonlari qoraqalpoqlarni tobe etishga faol harakat qilishgan va oqibatda 1811-yil ular boʻysundirilgan. Xiva xonlariga qarshi qoraqalpoqlar bir necha marta (1827, 1855-56, 1858-59 yillar) bosh koʻtargan. 1873-yil Chor Rossiyasi istilosi natijasida oʻng sohil Amudaryodagi qoraqalpoqlar Rossiyaga qoʻshib olingan. Bu yerda Amudaryo boʻlimi tuzilgan, Turkiston general-gubernatorligining Sirdaryo viloyati tarkibiga kiritilgan. Chap sohilda yashovchi qoraqalpoqlar Xiva xonligi tasarrufida qolgan. Oʻrta Osiyoda shoʻrolar hokimiyati oʻrnatilgach, chap sohil va oʻng sohil qoraqalpoqlari Qoraqalpogʻiston avtonom viloyatini tuzgan. XIX asr – XX asr boshida qoraqalpoqlarda xoʻjalik, ijtimoiy va oilaviy hayotda urugʻ-qabila tizimi va patriarxal-urugʻchilik munosabatlari qoldiqlari saqlanib qolgan.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Ахмедов В. Тарихдан saboqlar. – Toshkent: “Oʻqituvchi”, 1994.
2. Камалов С.К. Каракалпаки в XVIII-XIX веках. – Тошкент: Фан, 1968. (Kamalov S.K. Karakalpakki v XVIII–XIX vekax. – Toshkent: FAN, 1968)
3. Иванов П.П. Очерки по истории Средней Азии. – М., 1958. (Ivanov P.P. Ocherki po istorii Sredney Azii. – M.:1958.)
4. Жсанко Т.А. Очерки исторической этнографии каракалпаков. М-Л.: Изд-во АН СССР, 1950; Жсанко Т.А. Каракалпаки Хорезмского оазиса. Т.Х.А.Э.Э. т.1. – М., 1952; Жсанко Т.А. Каракалпаки (основные проблемы этнической истории и этнографии). – М., 1969. Jsanko T.A. (Ocherki istoricheskoy etnografii karakalpakov. M-L. Izdyu AN SSSR 1950; T.A.Jsanko. Karakalpakki Xorezmского oazisa. T.X.A.E.E. t I. M.1952; T.A.Jsanko Karakalpakki (osnovnie problemi etnicheskoy istorii i etnografii). – M.:1969).
5. Андрианов Б.В. Древние оросительные системы Приаралья. –М.: “Наука”, 1969. (Andrianov B.V. Drevniye orasitelnie sistemi Priaralya. – M.: “Nauka”, 1969.)
6. Каримов А. Жиян творчествоси. – Нукус, 1969. (Karimov A. Jiyan tvorchestvosi. – Nukus, 1969.)
7. Mambetov K. Qoraqalpoqlar tarixi. – Nukus, 1991.
8. Пирназаров А. “Поскан” поэмаси. Вестник Каракалпакского отделения АН Республики Узбекистан. 1992. №1. – С.129-136. (Pirnazarov A. “Poskan” poemasi. Vestnik Karakalpakskogo otdelaniya AN Respubliki Uzbekistan. 1992. № 1 129-136 bet)

9. Камалов С.К. Каракалпаки в XVIII-XIX веках. – Тошкент: Фан, 1968. – С.26. (Kamalov S. K. Karakalpakı v XVIII-XX vekaх. – Tashkent: AN 1968. 26 bet.)
10. Камалов С.К. Каракалпаки в XVIII-XIX веках. – Тошкент: Фан, 1968. – С.29. (Kamalov S.K. Karakalpakı v XVIII-XX vekaх. Tashkent FAN. 1968. 29 bet.)
11. Иванов Н.Н. Очерки истории каракалпаков. (Ivanov N.N. Ocherki istorii karakalpakov.)
12. Камалов С.К. Каракалпаки в XVIII-XIX веках. – Тошкент: Фан, 1968. – С.32. (Kamalov S.K. Karakalpakı v XVIII-XX vekaх Tashkent FAN. 32 bet.)
13. Иванов П.П. Очерки истории каракалпаков. (Ivanov P.P. Ocherki istorii karakalpakov.)
14. Камалов С.К. Каракалпаки в XVIII-XIX веках. – Тошкент: Фан, 1968. – С.32. (Kamalov S.K. Karakalpakı v XVIII-XIX vekaх. Tashkent 1968. 32 bet.)
15. Иванов П.П. Очерки по истории Средней Азии. – М.:1958. 143-с. (Ivanov P.P. Ocherki po istorii Sredney Azii. – М.:1958. 143 bet.)
16. Материалы по истории каракалпаков. М-Л.: Изд-во АН СССР, 1935. – С.53. (Materiali po istorii karakalpakov. M-L. Izd-vo AN SSSR, 1935. 53 bet.)
17. Материалы по истории каракалпаков. М-Л.: Изд-во АН СССР, 1935. – С.50. (Materiali po istori karakalpakov. M. Izd-vo AN SSSR, 1935. 50 bet.)
18. Иванов П.П. Новые данные о каракалпаках. Советское востоковедение. Т.3. М-Л., 1945. (Ivanov P.P. Novie dannie o karakalpakax. Sovetskoye vostokavedeniye. T.III. M-L 1945).

ЎТМИШГА НАЗАР

8 ЖИЛД, 3 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 8, НОМЕР 3

LOOK TO THE PAST

VOLUME 8, ISSUE 3

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадqiqот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000